
Sayyor qabul bo'lib o'tdi

Aholi bilan doimiy muloqot qilish, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni hal etishning samarali mexanizmi va usullari joriy etilgani mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Odamlarning dardini eshitish, og'irini yengil qilish yurtdoshlarimizning adolatga, davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilayotir. Bugun tumanimizning "Dehqonobod" mahalla fuqarolar yig'inida viloyat IIB boshlig'i M. Jo'raevning sayyor qabuli bo'lib o'tdi. Ushbu sayyor qabulda tuman hokimi, viloyat IIB boshlig'ining o'rinbosarlari, tuman sektor rahbarlari, viloyat va tuman korxonatashkilot rahbarlari va tuman Xalq qabulxonasi xodimlari ishtirok etishdi. Sayyor qabul jarayonida aholi tomonidan bildirilgan uy-joy ta'minoti, kredit olish, oilaviy nizolar, davolanish uchun pul mablag'i olish, moddiy yordam olish, sud-huquq, ishga joylashish murojaatlari yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi. Kelib tushgan murojaatlarga tegishliligi bo'yicha qonuniy yo'l-yo'riq ko'rsatilib, tegishli taklif va tavsiyalar berildi. Murojaatlarni o'z muddatlarida o'rganib chiqilishi bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi. O'tkazilgan ushbu sayyor qabulda 50 nafardan ortiq fuqarolar ishtirok etishdi. Qabul jarayonida tuman aholisidan 25 ta murojaatlar qabul qilinib, shundan 8 ta murojaat joyida ijobiy hal qilindi. 3 ta murojaat yuzasidan Qolgan 14 murojaatlar muddat talab qilganligi sababli tegishli tashkilot rahbarlariga ko'rsatma berilib, ijrosi nazoratga olindi. Sayyor qabulda Dehqonobod mahallasi fuqarolari tomonidan shag'allashtirish yuzasidan qilingan murojaat joyida hal etilib, bugunning o'zida ushbu mahallaning 600 metr masofadagi ichki yo'llar shag'allashtirildi.

2022-05-17 18:33:15